

JAHON ADABIYOTIDA "BULBUL" ERTAGINING DIDAKTIK AHAMIYATI

*Sharopova O`g`iloy Shavkatovna,
Marg`ilon shahar 1-DIUM o`qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada „Bulbul“ ertagining o‘ziga xos ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Mustaqil mamlakatimizda kattalar adabiyotining ajralmas bir bo‘lagi bo‘lgan adabiyotining rivojlanishi, har tomonlama boyib borishida tarjima asarlarning o‘rni, ahamiyati katta. Negaki, tarjima asarlarni o‘qigan har bir yosh kitobxonning dunyo haqidagi fikri, tasavvuri boyib, o‘sha xalqning yashash sharoitlari, urf-odatlari, mehnatlari, orzu-intilishlari bilan oshno bo‘ladilar.

Kalit so‘zlar: jahon adabiyoti, bolalar adiblari, tarjima asarlar, ma’naviy ozuqa.

O‘zbek Bolalar adabiyoti Jahon Bolalar adabiyotining ilg‘or an‘analari ta‘sirida rivojlanadi. Jahon Bolalar adabiyotining bir necha nodir namunalari o‘zbek tiliga tarjima qilingan: “Gulliverning sayohatlari“ (Jonatan Svift), “Robinzon Kruzo“ (D.Defo), “Tom tog‘aning kulbasi“(Bicher Stou), “So‘na“(E.Voynich), “Qizil shapkacha“(Sharl Pero),”Dyumchaxon”,”Bulbul“ (Hans Kristian Andersen) singari sermazmun ijod qilgan ijodkorlarning asarlari kitobxonga ma’naviy ozuqa bo‘ladi. O‘zbek bolalar adabiyotining bebaho mulki bo‘lib qoladi. Asrlar osha bu asarlar eldan elga, tildan tilga o‘tib, dillarni yashnatib yuradi. Tarjima asarlar qalblarning olamga nisbatan qiziqishlarini jo‘sh urdirib yuboradi. Jahon adabiyotidagi tarjima asarlar bolalar adabiyotida kitobxonni nimagadir o‘rgatadi, nimagadir da‘vat etadi. Bu asarlarning ko‘pchiligida ona Vatanga muhabbat, uning ozodligi va baxti uchun jon fido qilish “Uch baqaloq“ noshukur bo‘lmaslik, ota-ona pand-nasihatiga quloq solish; “Ahmoq sichqoncha haqida“ tabiatga buyuk mehr; "Maugli" tabiatni asrash, hayvonot olamni sevis; “Doktor Aybolit" namunali o‘qish, kasb-hunar egasi bo‘lish, o‘ziga pishiq-puxta bo‘lish, ichki sirlarni o‘zgalarga oshkor qilmaslik; "Qizil Shapkacha"dek oliyjanob g‘oyalarning yotishi bolalarning tarjima asarlariga nisbatan bo‘lgan qiziqish va ishtiyoqlarni o‘stiradi. Bunday asarlarni kitobxon qancha ko‘p o‘qisa, shuncha ko‘p ozuqa oladi.

Jahon bolalar adabiyoti deganimizda yer yuzidagi barcha xalqlarning atoqli yozuvchilari yaratgan, nafaqat o‘z xalqlari, balki barcha xalq bolalari uchun sevimli bo‘lib ulgurgan badiiy asar namunalarni tushunamiz. Jahon bolalar yozuvchisi deganimizda o‘zbek bolalari uchun sevimli, o‘zining ajoyib va g‘aroyib ertaklari bilan jahonga tanilgan buyuk so‘z ustalaridan biri Hans Kristian Andersen ko‘z oldimizga keladi. Yozuvchi xalq og‘zaki ijodi bilan tanishib, qiziqqan. Ijodiy mashqini 20-yillarda lirika, roman, dramaturgiya, sayohat ocherklarida sinab ko‘rdi. Andersen ertaklarining

qahramonlari o'zalarining samarali mehnatlari, aql-idroklari, axloq-odoblari bilan kitobxon tahsiniga sazovor bo'ladilar. Uning "Bulbul" ertagi estetik zavq beradi.

Asarning asosiy g'oyasi shundaki, odamlar ko'pincha tashqi ko'rinishni va go'zallikni tanlayotganda, haqiqiy go'zallik yaxshi ishlar ortidan yashiringanligini o'ylamasdan aldanishadi. "Bulbul" ertagida bosh qahramon bulbulning tashqi ko'rinishiga ko'ra chiroyli bo'lsa-da, mehribon qalbga ega, do'st bo'lishni va o'ziga nisbatan munosabatni qadrlashni bildiradi. Yana bosh g'oyasi sifatida "Hayajonlanish hech narsaga yaramaydi va haqiqiy his-tug'ular hamma narsadan qimmatroq", - deb aytganki mubolag'a bo'lmaydi.

Bu ertak bizni tabiatning go'zalligini sevishga va qadrlashga o'rgatadi, go'zallikni tushunishga, inson qo'li bilan yaratilgan hech qanday mukammal mashina, hech qachon tabiat in'omlarini o'rnini bosa olmaslikka o'rgatadi. Qolaversa, yaxshi yurak va yaxshi ishlar tashqi qobiqdan ko'ra muhimroq ekanligini, faqat fidoyi odam qiyin paytlarda yordam bera olishini, erkin bo'lish uchun tug'ilgan odamni asirlikda saqlash mumkin emasligini, o'zimizda bor narsani qadrlab, ideallikni taqib qilmaslikka o'rgatadi.

Ushbu asarda ko'p hayratga, his-hayajonga to'la nuqtalar "Bulbul" obrazida juda mahorat bilan boyitilgan. Bulbul "siz allaqachon meni bir marta mukofotladingiz!- deydi. Birinchi marta sizning oldingizda qo'shiq aytganimda ko'zlaringizda yoshni ko'rdim. Men buni hech qachon unutmayman! Ko'z yoshi qo'shiqchining yuragi uchun eng qimmatli mukofotdir. Ammo hozir uxlang va sog'lom, baquvvat uyg'oning! Men sizni o'z qo'shig'im bilan quvontiraman." Va u yana qo'shiq aytdi va imperator sog'lom, muborak uyquda uxlab qoldi. U uyg'onganida quyosh allaqachon porlab turardi. Hech kim uni ko'rishga kelmadi, hamma uni o'ldi deb o'yladi. Bir bulbul deraza oldida turib, qo'shiq aytdi". Bunday jilokor, sermazmun jumlar kitobxonning estetik zavq olib, miriqib mutolaa qilishini ta'minlaydi, zamin yaratadi.

"Bulbul"ertagida haqiqiy san'atning sun'iy san'at va o'lim ustidan g'alabasi ifodalangan. Faqat ruh, rahim-shafqat haqiqiy go'zallikning daliliga aylanishi yotadi. Bu ertak barcha kitobxonlarga birday manzur bo'ladi. Haqiqiy bulbulning qo'shig'i har doim boshqa bo'lgan, faqat bitta ohangni kuylay oladigan va buzilishi mumkin bo'lgan mexanik o'yinchoq ustidan g'alabasi haqida hikoya qilinadi. Xitoy imperatori xatosini tushunadi. U samimiy his-tuyg'ularni his qila oladi va shuning uchun bulbul uni kechirdi va kasal bo'lib qolganda yordam berdi. Asar orqali kitobxon kechirishni, odamlarga doim mehribon bo'lishini, qiyin kunlarida ularga yordam berishni, sodiq bo'lishni biladi. Odamlar har doim soxta go'zallikni haqiqiysidan ajrata olish qobiliyatiga ega. Go'zallik yaxshilik bilan birlashganda buyuk kuchga aylanadi. Haqiqiy san'at insonlarga ajoyib, mo'jizaviy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: "Ma'naviyat". 2014.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006.
3. Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti. T.: "Innovatsiya-ziyo". 2020.
6. M.O.Tokhirjonovna. VOCABULARY DEVELOPMENT IN ONTOGENESIS IN PRESCHOOL CHILDREN. Modern Journal of Social Sciences and Humanities 5, 375-379
7. M.O.Tokhirjonovna. Semantics of the Word in Children's Speech. International Journal of Culture and Modernity 17, 267-273
8. O.Maxmudova. СЎЗ ЛЕКСИК МАЪНОСИНИНГ ҲОСИЛА МАЪНО ЮЗАГА КЕЛТИРИШИ. Science and innovation 1 (B6), 171-176
9. O.T.Maxmudova. TURKIY SO'ZLARDA O'ZAK MORFEMA TUSHUNCHASI. Journal of Integrated Education and Research 1 (6), 52-54
10. O.T.Maxmudova. ONA TILINI O'RGANISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ORQALI TALABALARDA VATANPARVARLIK RUHINI SHAKLLANTIRISH. Innovative development in the global science 1(5), 81-87.
11. O.Maxmudova. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA BO'G'IN VA UNING TIPLARI YUZASIDAN OLIB BORILGAN IZLANISHLAR. OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 105